

13. Сергеев С.Ф., Бершадский М.Е., Чоросавай О.М. Когнитивная педагогика: технологии электронного обучения в профессиональном развитии педагога: монография. СВФУ им. М.К.Аммосова, Инст-т непрерывного проф. образования. – Якутск, 2016. – 337с. <https://www.s-vfu.ru/universitet/rukovodstvo-i-struktura/instituty/ipkp/>.

14. Тернер Е.Ю. Цифровизация высшего образования: барьеры цифровой трансформации в высших учебных заведениях и онлайн-обучение (Ocl). Вестник Чувашского государственного педагогического института им. И.Я.Яковлева. 2022. №4 (117). –С.170-176.

15. Шапов А.Н. Когнитивный подход к обучению лексике: моделирование и реализация (базовый курс немецкого языка).- Автореф дисс. докт.пед.н., - Тамбов: 2005. -С.49. <https://nauka-pedagogika.com>

REZYUME. Maqolada ta'limni sifat bosqichiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanayotgan bugungi kunda ta'lim tizimga raqamli texnologiyalarni olib kirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan holda ushbu jarayonlarga bo'lajak pedagog-o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash masalasi tahlil etilgan. Bunday ayniqsa ularning kognitiv, ya'ni ularning o'z sohasini yaxshi bilishi hamda intellektual, ya'ni aqliy salohiyatga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy tahlil etilgan. SHu bilan bir qatorda maqola intellekt nazariyasi tahlil etilgan holda bugungi kunda talabalarning intellektual-kognitiv salohiyatini oshirish ilmiy-pedagogik muammo ekanligi ilmiy asoslangan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируется вопрос с акцентом на важную значимость внедрения цифровых технологий в систему нынешнего образования, который становится одним из приоритетных задач государственной политики по продвижению образования на качественный уровень, подчеркивающий профессиональную подготовку будущих педагогов-учителей к этим процессам. Научно проанализировано, что такое важное значение имеют их когнитивные, то есть их высокое знание своей сферы, а также их интеллектуальные, то есть умственные потенциалы. Вместе с этим, анализируя теорию интеллекта, в статье научно обоснована научно-педагогическая проблема повышения интеллектуально-когнитивного потенциала студентов в нынешнее время.

SUMMARY. The article analyzes the issue of professional training of future teachers for these processes, emphasizing the importance of introducing digital technologies into the education system today, when raising education to a quality level is becoming one of the priority tasks of state policy. It is scientifically analyzed that it is especially important for them to be cognitive, that is, to know their field well, and to have intellectual, that is, mental potential. Moreover, the article analyzes the theory of intelligence and scientifically substantiates that increasing the intellectual and cognitive potential of students today is a scientific and pedagogical problem.

PEDAGOG-TARBIYACHINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

D.Reymbergenova – magistrant

N.Sultanova – magistrant

Q.D.Tleumbetova – docent

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: mahorat, pedagogika, kasbiy tayyorgarlik, metodlar, vazifa, tarbiyachi, talaba, sifat, pedagog.

Ключевые слова: мастерство, педагогика, профессиональная подготовка, методы, задача, воспитатель, ученик, качество, педагог.

Key words: skill, pedagogy, professional training, methods, task, educator, student, quality, pedagogue.

Bugungi kunda poedagog-tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining professor-pedagoglari tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o'qitish texnologiyalari bo'lajak mutaxassis tarbiyachilarning kasbiy salohiyatining qaror topishi va tarbiyalash, ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, kasbni egallashning kasbiy-ahamiyatli bazasini yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishida ahamiyatli hisoblanadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda va pedagog olimlarning ilmiy izlanishlarida "mahorat", "kompetentsiya" degan tushuncha keyingi paytlarda bir xil ko'lamda keng qo'llanilib kelinmoqda. "Kasbiy salohiyat" – tushunchasi esa, shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni echish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlar va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi.

«Kasbiy salohiyat» atamasi ta'lim sohasiga pedagoglar va psixologlarning izlanishlari natijasida kiritilgan edi. Pedagogik mahorat, noan'anaviy vaziyatlarda yoki kutilmagan hollarda o'zini qanday tutish, muloqotga kirishish, raqobatdoshlari bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l topish, mavhum vazifalarni bajarishda, ziddiyatli ma'lumotlardan foydalanishda, hamisha rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda qanday harakat qilishi kerakligi to'g'risida nazariy bilimlar zarurligini isbotlab beradi.

Kasbiy salohiyat o'z bilimlarini doimiy boyitib borishni, yangi va kerakli axborotlarni o'rganishni, bugungi kun va davr talablarini his va idrok etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kasbiy salohiyat egasi bo'lgan tarbiyachi muammolarni hal etishda o'zi

o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi aniqlangan.

Agarda pedagogning kasbiy mahorat dasturiga amaliy qaralsa, u holda birinchi o'ringa uning integral sifati – tarbiyachining mahoratidan iborat bo'ladi. Pedagogik mahoratga berilgan ta'riflar shuncha ko'p bo'lishiga qaramay, ularda mahoratning qaysidir tomonlari albatta ifodalanadi.

Mahorat - bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat. Pedagog – o'z ishini ustasi, o'z fanini chuqur biluvchi, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutaxassis. Pedagogik nazariyada tarbiyachi mahoratini ikki xil tushunish mavjud. Birinchisi, pedagogik mehnatni tushunish bilan bogliq bo'lsa, ikkinchisi tarbiyada pedagog shaxsi asosiy o'rin tutadi.

Umuman olganda, zamonaviy o'qitish uslublari va tadqiqotchilarning ilmiy-pedagogik xulosalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ta'lim "pedagogik ta'sir" asosida emas, balki "o'zaro ta'sir" asosida, bunda pedagogik faoliyat asosida interfaol shaklda tashkil etilishi lozim [4:58].

Pedagog- tarbiyachi vaziyatdan kelib chiqib, o'zini qanday qilib to'g'ri tutish kerakligini bilishi kerak. Bu o'quvchilarga alohida e'tibor berishda, o'quvchilarni darsda faol ishtirok etishga undashda namoyon bo'lishi mumkin, natijada o'quvchi hayajonli musiqa tinglashdan tortib, jarayonning kognitiv qismidan zavqlanadi. Bolalarni diqqat bilan kuzatib borish orqali ularning idrok etish darajasini, asarni ijro etish sifatini, o'ziga xos ish uslubini va shunga

mos ravishda musiqa faoliyatining muayyan turi natijasini aniqlash mumkin. Mimikadan foydalanish ham ijobiy natija berishi mumkin. Demak, masalan, bola o'qituvchining nigohining mos ifodalariga ko'ra (boshni orqaga, oldinga yoki yonga egib) ishini bajarish jarayonida o'ziga yuklangan vazifani tushunib, bajara oladi. Mimikaning ushbu elementlari bolalar bilan oldindan muhokama qilinishi va shunga mos ravishda unga tushunarli bo'lishi muhimdir. [6:58].

Mahoratni egallash uchun ko'p narsani bilish va foydalanishni bilish zarur. Tarbiya printsiplari va qonunlarini hamda uning tashkil etuvchilarini bilishi zarur. O'quv-tarbiyaviy jarayon va uning tashkil etuvchilarni samarador texnologiyalardan foydalanish uchun har bir konkret holat uchun ularni to'g'ri tanlab olishni, diagnostikalashni, oldindan bilishni va berilgan daraja va sifat jarayonini loyihalashni juda yaxshi bilishi zarur.

Pedagogik mahorat – shaxsning pedagogik sifatleri majmui va tarbiyachi tomonidan kasbiy pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda samarali tashkil etishni ta'minlash bo'lib, u pedagogning faoliyat mohirligini eng yuqori choq-isiga erishganligini bildiradi [3:12]. Tarbiyachilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir. Har bir tarbiyachining muhim hayotiy o'rni, uning o'z ishining ustasi bo'lishidir. Pedagog-tarbiyachi mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. Pedagog-tarbiyachi avvalo pedagogik jarayonning qonuniylari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi. Biroq mahorat — bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada usta bo'lishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati cho'g'idagina go'zaldir.

Pedagogik mahorat yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi [1:16]. «Pedagogik mahorat» bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. Turli tadqiqotchilar ishlarida ayni bir hodisani tavsiflash uchun turlicha tushunchalardan foydalanish boshqacha ma'no va mazmun tomonlariga ega [2:78]. Turli muallif asarlarida pedagogik mahoratning yagona, tan olingan ta'rifining yo'qligi uni tadqiqotning jonli jarayoni deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Tushunchalar, fikrlarning turli-tumanligi bu hodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligidan dalolat beradi. Barcha ta'riflarda urg'u shaxsga beriladi va shu tariqa ular pedagogik mahoratning sotsial mohiyatini aks ettiradi.

Ta'lim islohoti yangicha fikrlovchi, asrimizning shiddatli axborot oqimida to'g'ri yo'l topa oladigan, axborotlardan unumli, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, kasb-hunar o'rganishida foydalana oladigan, izlanuvchan, ijodkor pedagogni shakllantirish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ydi [11:82]. Bu ishning muhimligi shundaki, pedagogik tajriba ta'lim mazmuniga qanchalik yangilik kiritilmasin, qanchalik mukammal dasturlar, darsliklar va ta'lim standartlari yaratilmasin, ularni o'quv-tarbiya jarayoniga joriy qilish tarbiyachi shaxsi va pedagogik mahoratiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Modomiki shunday ekan, malaka oshirish jarayonida nimalarga asosiy e'tiborni qaratish yoki uning maqsadi nimalarda o'z ifodasini topadi? Fikrimizcha bunda:

- har bir pedagogning shaxsiy sifatleri va kasbiy mahoratini oshirish bilan birga o'z mutaxassislighi bo'yicha ham eng so'nggi yangiliklar bilan tanishtirib borish;

- kasbiy - pedagogik faoliyatning yuqori darajada bo'lishi uchun yangiliklarni amaliyotga qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish;

- pedagoglarda yangiliklarga tashnalik va doimo mustaqil o'qish hissini tarbiyalash;

Shunday qilib, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi

ularning ijodiy imkoniyatlarini, shaxsiy sifatlarini va kasbiy bilim, ko'nikma va takomillashtirib, o'quvchilar ta'lim-tarbiyasining sifatini ko'tarishga erishishdir.

Pedagog tarbiyachi bolalar bilan ishlashga tayyorgarlik ko'rayotganda o'z qobiliyatini baholashi, o'rganilayotgan musiqiy asarning ayrim tomonlarini hisobga olishi va shundan keyingina ishini tashkil qilishi kerak. Imkoniyatlarni ob'ektiv baholash tarbiyachining kasbiy tayyorgarlik darajasini, jismoniy holatini, pedagogik qobiliyatini belgilaydi [9:108]. Shaxsiy va kasbiy fazilatlarining uyg'unligi uning imkoniyatlari chegarasi va doirasini aks ettiradi. Vaqti-vaqti bilan u yoki bu darsni videoga yozib olish va ushbu darsning materialini, uni amalga oshirish sifatini boshidan oxirigacha tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Agar pedagog-tarbiyachi bolaga ta'lim va tarbiya jarayonida yordam berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yg'an bo'lsa, bolaning mehnati natijasida erishgan badiiy vazifalarni uni pedagog talabiga yaqinlashtiradi. Pedagog-tarbiyachilar bilan muloqot qilishda munosabatlarni o'rnatish usullaridan biri bo'lgan tashkiliy uslub muhim ahamiyatga ega [7:218]. Darsda talabalarni boshqarishning demokratik uslubi aniq badiiy va musiqiy vazifalarni muhokama qilish, tashabbuslarni rag'batlantirish va tarbiyachi va talabalar o'rtasida faol musiqiy ma'lumot almashishda namoyon bo'ladi. Har bir tarbiyachining pedagogik taktikasi individualdir, o'zini turli yo'llar bilan namoyon qiladi, ko'pincha o'quvchining darajasiga, uning ehtiyojlariga bog'liq. Lekin tarbiyachining talablari tarbiyachi ularga ishonch bildirsa, o'quvchilarga hurmat bilan munosabatda bo'lsagina talabalar tomonidan qabul qilinadi. Shu bilan birga, har doim ham talabaning shaxsiyatiga ishonchli va ongli ravishda ijobiy munosabatni ko'rsatish tavsiya etilmaydi [3:65]. Pedagog-tarbiyachi bolalar bilan ijobiy munosabatda bo'lish vaziyatini yaratishi, ular bilan faqat muayyan ziddiyatlarni hal qilish uchun emas, balki ularni halol, adolatli hal qilish, yuzaga kelgan bahsli vaziyatni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish, aniqrog'i, ikkinchisini hal qilish kerak.

Uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inida tabaqalashtirish hoxish bilan emas, balki ehtiyoj asosida tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq. Eng avvalo uni metodologik, umumpedagogik, psixologik va didaktik jihatlarini va bularni o'quv jarayoniga tadbir qiluvchi pedagoglarni tayyorlash bilan bog'liq. Uning ilmiy asoslarini ishlab chiqib, pedagoglar unga tayyorlanmasa, yana boshimiz o'rtamiyona yondoshishdan chiqmaydi [9:47]. Malaka oshirish tizimida faoliyat ko'rsatuvchi tarbiyachilar ta'kidlaydilar, har doim guruhlarda tinglovchilarning tayyorgarligini uch xil: kuchli, o'rtacha va pastni mahoratlarini uchratish mumkin. Pedagog-tarbiyachi tenglashtirish prinsipi asosida o'quv materialini mazmunini kuchli tinglovchiga tayanib tanlasa, kuchsiz tinglovchining mazkur va boshqa fanlarga bo'lgan qiziqishi pasayadi. Agar tarbiyachi past tayyorgarligi bo'lgan tinglovchiga tayansa, bunda yuqori va o'rtacha tayyorgarligi bo'lgan bolalarning malaka oshirishdagi o'qishga qiziqishi yo'qoladi. Shuning uchun o'rtacha yondoshish prinsipidan voz kechib, taxsil oluvchilarning real individual xususiyatlarini hisobga olish shu kunning taqozosi hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Амонов М.Н. Особенности формирование организаторских качеств у учащихся педагогических колледжей //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. 2020.
2. Gulboyev A.T. Ea'limda pedagogik qadriyatlar //Scientific progress. 2021. T. 2. №. 7.

3. Гулбоев А.Т. Аспекты и особенности целостного педагогического процесса. //Вопросы науки и образования. 2021. №. 10 (135).
4. Гулбоев А. Т. Педагогик таъхис воситасида ўқитувчилар малакасини узлуксиз ошириш.. Педагогика. фан. ном. 2010.
5. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов. //Вестник науки и образования. 2020. №. 5-2 (83).
6. Жураев Б. Т. Гуманизация дидактических отношений между учителем и учащимся в педагогических идеях Востока //VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". 2018.
7. Жураев Б.Т. Деятельность педагога по гуманизации учебновоспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. 2017. Т. 31.
8. Жураев Б.Т. Некоторые вопросы наставничества в педагогическом наследии Хусаина Воиза Кошифи //Социально-культурная деятельность: векторы исследовательских и практических перспектив. 2016.
9. Ходжаев Б.К., Жураев Б.Т. Повышение нравственно-эстетической культуры слушателей института повышения квалификации работников народного образования //Экономика.
10. Ходжаев Б. К., Ходжаев Б. Б. Подготовка студентов педагогического факультета к формированию эстетической культуры у школьников //Формирование патриотизма у молодежи средствами социально-культурной деятельности: векторы исследовательских и практических перспектив. 2016.
11. Ortiqov O.R. O'qituvchi faoliyatida pedagogik deontologiya va kompetentlikning roli va ahamiyati //Scientific progress. 2021. T. 2. №. 5.

РЕЗЮМЕ. Biz bu maqolada ta'lim sohasida asosan maktabgacha ta'lim yo'nalishida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kasbiy mahoratini shakllantirish asoslari, ularning vazifalari va kasbiy mahoratni oshirish texnologiyalari haqida bayon qilamiz.

РЕЗЮМЕ. В данной статье мы описываем основы формирования профессионального мастерства педагогов, преимущественно работающих в сфере дошкольного образования, их задачи и технологии повышения квалификации.

SUMMARY. In this article, we describe the basics of professional skill formation of pedagogues, who are mainly working in the field of preschool education, their tasks and technologies of professional skill improvement.

ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМ МАЗМУНИ ОРҚАЛИ ЛИНГВИСТИК КОМПЕТЕНЦИЯ ШАКЛЛАНТИРИШ

С.С.Тажбенова – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти

Таянч сўзлар: лингвистик компетенция, ёндашув, билим, муаммо, ғоя, назарий билим, субъект.

Ключевые слова: лингвистическая компетенция, подход, знание, проблема, идея, теоретическое знание, субъект.

Key words: linguistic competence, approach, knowledge, problem, idea, theoretical knowledge, subject.

Бугунги кунга қадар бошланғич синфларда ўқувчиларнинг кейинги босқичларда касбий, маънавий-ахлоқий тарбиясига мустақкам пойдевор яратувчи таълимни барқарор тараққий эттириш асносида она тилин ўқитишга катта эътибор берилиб, дарсларда ўқувчиларни таълим субъектига айлантириш уларнинг тил ходисаларини тадқиқ этишларини уюштириш, шу йўл билан мустақил хулоса чиқаришларига эришиш, олган билимларини нутқий амалиётда татбиқ этиш қуникмаларини шакллантириш юзасидан изланишлар олиб борилмоқда. Шунга қўра ҳам бошланғич таълим босқичида ўқувчиларга назарий билимларни амалда қўллашни ўргатиш долзарб аҳамият касб этади.

Лингвистик компетенция тилининг қонун-қоидаларига амал қилган ҳолда тил бирликларини онгли ва тўғри қўллай олиш малакаси билан тавсифланади. Шундай компетенцияси шаклланган киши ўзининг адабий тилда саводли фикр баён қилиши билан ажралиб туради. Бу даражага инсон таълим босқичларида ўқиб-ўрганиш орқали эришади. Албатта, бу борада мактабдаги она тили таълимининг тўғри танланган мазмуни, тўғри амалга оширилган таълимий тадбирларнинг хизмати бекиёс.

Бошланғич синфлар она тили таълими мазмуни орқали лингвистик компетенцияни шакллантириш учун пойдевор қўйилади. Бу даврда она тилининг қонун-қоидаларини қай даражада эгаллаш мумкин, деган савол туғилиши табиий. Шубҳасиз, саволга ўқув фани давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурларида белгиланиб, амалиёт натижалари асосида тобора стабиллашиб бораётган таълим мазмуни билан жавоб бериш жоиз. Бу борада она тили ўқитувчиларининг таълим мазмуни юзасидан тўплаган илғор иш тажрибаларини оммалаштириш ҳам муҳим роль ўйнайди

Бошланғич синфлар она тили дарсларида икки хил компетенция (нутқий компетенция ва лингвистик компетенция) устида иш олиб борилади. «Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти» да белгиланган нутқий компетенция хориж методист олимлари тавсифлаган лингвистик компетенцияга, лингвистик компетенция тавсифи эса тил компетенциясига ўхшаш мазмунда белгиланади. Бунга «Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларида Она тили фанини ўқитишнинг асосий вазифаси» ҳам ишора қилади:

ўқувчи шахсини фикрлашга, ўзгалар фикрини англашга, ўз фикрини оғзаки ҳамда ёзма шаклда саводли баён қила олишга қаратилган нутқий компетенцияни ривожлантириш;

ўқувчиларда грамматикага оид ўзлаштирилдиган билимларни (фонетика, лексикология, сўзнинг таркиби, сўз ясалиши, морфология, синтаксис, ёзув ва имло, тиниш белгилари, нутқ услублари, стилистикага оид тушунчаларни) ривожлантириш;

она тилининг кенг имкониятларидан унумли фойдаланган ҳолда тўғри ва раvon баён эта олишни ривожлантиришга қаратилган лингвистик компетенцияларни шакллантиришдан иборат [1].

Бошланғич синф она тили таълими мазмуни ва методларига компетенциявий ёндашув таълим самарадорлигини янги сифат даражаси мезонлари асосида баҳолашда ўз ифодасини топади. Ушбу даража нутқий ва лингвистик компетенцияларнинг шаклланиши билан тавсифланади

Грамматик билимларни талаб қиладиган ҳолатларда аввал лингвистик компетенция, кейин тил ходисалари бўйича тегишли билимларнинг ҳосил бўлишига қараб нутқий компетенция устидаги иш олиб бориш мақсадга мувофиқдир. Грамматик билимларни талаб